

NUTQIDA NUQSONI BOR BOLALAR BILAN ISHLASHNING INNAVATSION USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5864554>

Yusupova Dildora A`zimovna

Andijon viloyati Oltinko`l tumani 11-umumta`lim maktabi

Anontatsiya: Maqolada nutqida nuqsoni bor bolalarda nutq buzilishining sabablari, nutq va eshitish qobiliyatida og`ir nuqson bo`lgan bolalarni tabaqalashtirish, nutq o`stirishda shakl va vositalar, innavatsion usullardan foydalanish haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: Nutq nuqsoni, sabablari, eshitish, nutq o`stirish, kamchilikni batraraf etish, usullar va mashqlar.

Annatsion: *The article discusses the causes of speech disorders in children with speech defects, stratification of children with severe speech and hearing impairments, forms and means of speech development, the use of innovative methods.*

Keywords: *Speech defect, causes, hearing, speech enhancement, defekts, methods and financial exercises.*

Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtda vatan ravnaqini ko'zlash maqsadida asosiy e'tibor yoshlarning aqliy, ahloqiy, jismoniy barkamoligiga har tomonlama yetuk, sog'lom avlodni o'stirishga qaratilyapti. Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda ma'suliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Bola komil inson bo'lib shakllanishida nutqning mukammal rivojlanishining ahamiyati katta. Ravon va yaxshi rivojlangan nutq shaxsning to'laqonli muloqoti va rivojlanishining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lug'at boyligi (leksika) til tizimining muhim qismi sifatida ta'limiy va amaliy ahamiyatga ega. Nutqning lug'at zahirasining shakllanishidagi kamchiliklari mavjud bo'lgan bolaning nutqini yaxshi rivojlangan deb bo'lmaydi. Nutq nuqsonlarini korreksiyalash, shu jumladan lug'at zahirasini boyitish kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

Bolalar nutqini shakllantirish masalasi hozirgi zamon logopediyasida muhim o'rin egallaydi, turli nutq nuqsonlarining holati va uni rivojlantirish metodikasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Aqli zaif nutqning shakllanishi

bolaning bilish faoliyatini rivojlanishida katta ahamiyatga ega, chunki so'z uning ma'nosi faqatgina nutqning emas, balki tafakkurning ham vositasidir.

Eshitish va nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir, chunki bola nutqning rivojlanishi uchun uning eshitish organining qobiliyati normal bo'lishi kerak, ya'ni u eshitgan so'zlarini takrorlaydi, natijada uning nutqi rivojlanadi.

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi (ekzogen) va ichki(endogen)omillar,shuningdek atrof-muhitning tashqi sharoitlari farq qilinadi.

Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishda evolyutsion dinamik yondashiladi.Bu nuqsonning yuzaga kelishi jarayonini tahlil qilishdan anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir.

Psixik (shu bilan birga nutqiy) jarayonlarning shakllanishida biologik-ijtimoiy jarayonlarning birligi prinsipi–nutqiy sistemaning rivojlanishiga – nutqiy muhit, muomala, emotsional aloqa va boshqa faktorlarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.Eshitishi normal bo'lgan bolaning kar-saqov ota-ona qo'lida tarbiyalanishi,surunkali kasal bo'lib tez-tez kasalxonalarda davolanuvchi bolalarda nutqning rivojlanmay qolishi, oilada uzoq vaqt davom etuvchi ruhiy shikastlanish va ikki fillilik–bolada duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi, nuqtiiy muhitning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga misol bo'ladi.

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablari:

- 1.Embrion rivojlanish davridagi turli xil patalogiyalar.
2. Homiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, qonning rezus-faktorga mos kelmasligi.
3. Tug'ruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya.
- 4.Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensefalit).
5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya jarohatlari.
6. Nasliy faktorlar. Bunday hollarda nutq buzilishlari umumiy nerv sistemasi buzilishlarining bir qismini tashkil etib, intellektual va harakat kamchiliklari bilan birga kuzatiladi.
7. Ijtimoiy-maishiy sharoitning yomonligi. Bu holat mikroijtimoiy qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emosional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar, ayrim hollarda ularning birgalikda qo'shilib kelishi nutqning turli tomonlarining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Hamma nutq buzilishlari kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.
2. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlar.

Organik nutq buzilishlar o`z navbatida ma`lum joyning zararlanishiga ko`ra markaziy va periferik xarakterda bo`ladi

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv sistemasining u yoki bu qismlarining buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga alaliya, afaziya, dizartriya kabi nutq kamchiliklari kiradi.

Funksional buzilishlar: Bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a`zolar tuzilishida hech qanday o`zgarishlar bo`lmaydi. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlariga: dislaliya, duduqlanish kabi nutq nuqsonlari kiradi.

Turli nutq buzilishlarining rivojlanishini oldidan aniqlash katta ahamiyatga egadir. Agarda nutqiy nuqson bolaning maktabga kelgan vaqtda ilk bor aniqlansa, u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib, o`zlashtirishga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bolalar lug`atining rivojlanishi nutqni egallanishi quyidagi ketma – ketlikda amalga oshadi (so`zning ma`no mazmunini differetsiyalash) otlar odatdagi birinchi so`zlar, fe'llar otlar bilan deyarli bir vaqtda paydo bo`ladi, ravishlar esa nisbatan kech shakllanadi. Bolalar tomonidan olmoshlarning ayrim shakllari esa juda erta egallanadi va ularning xotirasida turg'un qoladi, oson tushunchasi esa kech shakllanadi va uzoq vaqt davomida o`zlahtiriladi.

Nutq rivojlanmaganligining I darajasi:

Nutqning bo`lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir.

4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug`at boyligi kambag`al, noaniq bo`ladi. Nutqi tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo`ladi. Narsa va hodisalarni farq qilmagan holda ifodalash, so`zlarning ko`p ma`noga ega bo`lmasligi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo`lmaydi, tovushlar bir-biri bilan almashtiriladi, fonematik o`quv buzilgan bo`ladi. Nutq to`liq rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bo`lgan bolalar uchun tovushlar analizi bo`yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo`ladi.

Nutq to`liq rivojlanmaganligining II darajasi:

Dastlabki keng qo`llaniladigan, odatdagi nutqning bo`lishi bilan xarakterlanadi. Bolalar oddiy jumalardan foydalana biladilar, ma`lum lug`at boyligiga ega bo`ladilar. Ular narsalar, hodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqning qo`pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan bo`ladi. Ular ikki-uch so`zdan iborat gaplardan foydalanadilar. Lug`at boyligi shu yoshga mos keladigan normadan kam bo`ladi. Umumlashtiruvchi so`zlarni (mebel, kiyim, sabzavot,

mevalar va boshqalarni) bilmasligi kuzatiladi. Harakat, belgini bildiruvchi soʻzlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomini, rangini, shaklini, oʻlchamini va boshqa belgilarini bilmaydilar.

Nutq toʻliq rivojlanmaganligining III darajasida:

Nutqida leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqga ega boʻlganda kishilar bilan aloqa bogʻlay oladilar, buni ota-ona (tarbiyachi) ishtirokida, ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajaradilar.

Individual shaklda olib boriladi. Bunda bola bilan emotsional muloqotga kirishi uchun suhbatdan foydalanildi. Shuningdek anamnestik maʼlumotlar toʻplandi, har bir bolaning psixologik–pedagogik tavsifnomasi haqida maʼlumotga ega boʻlish uchun tarbiyachi va logoped bilan suhbat oʻtkazildi. Eksperimentda tadqiqotning vazifalariga mos keluvchi metodlardan foydalaniladi. Bolalarning bogʻlangan nutqini oʻrganishda quyidagi metodlar qoʻllaniladi:

- bolaning tibbiy – pedagogik hujjatlarini oʻrganish;
- bolalarni mashgʻulot predmetli – amaliy oʻyin faoliyati jarayonida kuzaish;
- logoped tarbiyachilar bilan suhbat oʻtkazish
- zont yordamida olib boriladigan amaliy mashqlar
- topshiriqlar seriyasi asosida bogʻlangan nutqini oʻrganish.

Bolalarning bogʻlangan nutqini oʻrganish jarayonida ularga quyidagi topshiriqlar beriladi:

Mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish. Bolaning oldiga ixtiyoriy tartibda maʼlum syujetni aks ettiruvchi 3–4 ta rasm qoʻyiladi. Soʻng bolaga rasmlarni toʻgʻri ketma–ketlikda qoʻyish taklif etiladi. Shundan soʻng rasmlar asosida hikoya tuzish soʻraladi. Hikoya tuzishda bolaning fiklash, kuzatish va tahlil qilish koʻnikmalari savollar asosida uning gapda soʻzlarning bogʻlanishiga doir muloqoti shakllantiriladi. Talaffuzdagi soʻzlar tahlil qilinib, shu soʻzlarni takror va takror talaffuz qilinib, xato va kamchiliklari toʻldirilib boriladi. Kundalik faoliyatida ota-onaning ham roli muhim ahamiyatga ega. Bunday murakkab jarayonda ota-ona farzadining nuqadagi kamchilikni bataraf etishni yoʻllarini erta, yoshligidan qoʻllansa oʻz natijasini koʻrsatadi.

Nutq oʻstirishda uchta yoʻnalish aniq ajratiladi.

- 1) Soʻz ustida ishlash.
- 2) Soʻz birikmasi va gap ustida ishlash.
- 3) Bogʻlanishli nutq ustida ishlash.

Koʻrsatilgan uch yoʻnalish paralel olib boriladi. Lugʻat ishi gap uchun material beradi. Soʻz va soʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli

nutqqa tayyorlaydi. O`z navbatida bog`lanishli nutq hikoya va lug`at boyitish vositasibolib xizmat qiladi.

Bundan tashqari hozirgi faolitimizda texnik vositalarining ham tildagi nuqsonlarni bartaraf etishida yaxshi samara beradi. Bolaning bunday vositalarga qiziqib, unda eshitib tinglashi, didaktik talaffuz mashqlari, turli xil videolavhalar uning lug`at boyligi va talaffuzda nuqsonlar ko`nikma asosida bartarf etib boriladi.

Xulosa qilib aytganda xatolarni salbiy nazar bilan emas, balki ijobiy nazar bilan qaraylik. O`quvchi nutqidagi kamchilikni tuzatish logopedik mashqlar va topshiriqlar, she`rlarni yoddan aytib berishi ko`nikmalari bunday nuqson kamchilik yil sayin bartaraf bo`lishiga olib boradi. Bolada o`zining ishtiroki shaxs sifatida muomala madaniyati, nutqidagi kamchiliklar uni jamoada cheklash emas balki mana shunday nuqsonlarini bartaraf etish o`z ustida ustida ishlashi mashg`ulotlarni muntazam takrorlab borishi undagi maqsad tuyg`usini shakllantirilishi kerak. Demak xatolar –o`rganish, tuzatish maqsadida tanlangan qadamdir, ularni to`g`riliash esa o`rgatish maqsadida tanlangan qadamdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganidek, "Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarmiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san`atimiz bor".

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. P.M. Po'latova "Oligofrenopedagogika" Toshkent 2005 yil.
2. V.S. Raxmanova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2004 yil.
3. Karimova V.M., R.N. Tojiboyeva Mustaqil fikrlash. -T. Sharq, 2000 yil
4. Sayidahmedov Ya. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati //2016.

Internet ma`lumotlar

1. <http://www.Uzdu.uz>.
2. <http://www.rtm.uz>
3. <http://Pedagog.uz>
4. <http://www.ziyounet.uz>